

IIV AKADEMIK LITSEYLARIDA O'QUVCHILARINI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHDA VATANGA SADOQAT XISLATLARINI SHAKLLANTIRISH – MA'NAVIYATNING YUKSAK KO'RINISHI

Musulmanov Akram Ibadullayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Samarqand akademik litseyi, dotsent

Azizova Dilshoda Abduhafizovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, o'qituvchi

Annotatsiya: *Yuksak ma'naviyatning yetakchi, asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu – vatanparvarlikdir. Shu bois vatanparvarlik tushunchasiga turli tomondan yondashadilar va talqin qiladilar. Ushbu maqolada “vatan” va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida fikr va mulohazalar qilinadi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, vatanparvarlik, qadriyatlar, sadoqat, vatan, Vatanning sha'ni, or-nomusi, ta'lim va tarbiya.*

“Vatan” (arabcha-o'sgan joy, yurt) – kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i, yurt, diyor yoxud kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat, ona yurt deb ta'rif berilgan “O'zbek tilining izohli lug'ati”da. “Vatan” - aniq tushuncha. U keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hududni ifodalaganda u keng ma'noga ega bo'ladi. Ya'ni, e'tiqodi, urf-odatlar va milliy xususiyatlari bir bo'lgan avlodlar yashayotgan geografik muhit Vatanni ifodalaydi. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq, shahar nazarda tutilsa, bu uni tor ma'noda tushunishdir.

Vatan nafaqat kindik qoni to'kilgan maskan, balki onadek muqaddas zamindir. “Vatan ostonadan boshlanadi” deb bejiz aytmaydi xalqimiz. Abdulla Avloniy “Har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan suyar” deb yozadi¹⁵.

Yer yuzida azaliy va abadiy haqiqat bor. Inson ilk bor homila tarzda Onaning bag'rida paydo bo'ladi. So'ng vaqti etib odamga aylangach esa yer yuziga keladi. Tug'ilgan go'dakni endi Vatan bag'riga oladi. Go'dak shu Vatanda ulg'ayadi, kamolga etadi. Homila faqat ona bag'ridagina yetilganidek, go'dak ham faqat Vatanda unib-o'sadi. Shu tufayli Ona va Vatanning vazifasi bir. Shu tufayli ular muqaddas. Ona bo'lmasa, Vatan bo'lmaydi, Vatansiz Ona ham yo'q. Insonga ham Ona, ham Vatan kerak. Yerdagi hayot shu buyuk uchburchak asosida qurilgan. Bu uchburchakni esa Onadagi farzandga, Vatanga va olamga bo'lgan mehr-muhabbat, oqibat ohanrabodek bog'lab, tortib, ushlab turadi. Ona mehri bo'lmasa hayot to'kilib, sitilib parokanda bo'lib ketadi. Ona mehrining barham topmasligiga, Vatanning

¹⁵ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent “Ma'naviyat” 1998. 55-bet.

zavolga uchramasligiga farzand, ya'ni Hazrati Inson javobgar qilingan. Bu uning yerdagi Bosh Vazifasidir.

Afsuslarkim, goho inson buni unutib, Vatanini tashlab ketadi. Ammo Vatan insonni hech qachon tashlab ketmaydi. Vatanning vatanligi ham shundadir. Vatanni tashlab ketib, yana bir kun qaytib kelgan daydi farzandini ham u beminnat qayta o'z bag'riga oladi. Vatanning kechirimligi, bag'rikengli ham shundadir. Vatanni qiyoslab, tenglab, almashtirib bo'lmaydi. U Alloh kabi beqiyos, betimsol va betakrordir. Zarurat bo'lganda bir ona o'rnini boshqa ona bosishi mumkin, ammo Vatanning o'rnini hech qachon boshqa Vatan bosa olmaydi. To'g'ri, inson har qaerda ham yashab ketaverishi mumkin. Bu faqat kun ko'rish, tirikchilik o'tkazish bo'ladi. Buni to'laqonli hayot deb bo'lmaydi. Vatansiz yashayotgan insonning hayoti kemtik, g'arib bo'lib qolaveradi. To'g'ri, bu borada boshqacha fikrlaydiganlar ham bor. Ayrimlar uchun Vatan go'yoki libos, uni xohlagan paytda boshqasiga almashtirish, yangilash mumkin.

Ayrimlar uchun esa Vatan Alloh bergan teridir, bu terini boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydi, terisi almashtirilsa, inson yashay olmaydi. Vatanning tanholigi ham aynan shundadir. Inson mana shu oddiy, lekin ulug' haqiqatni bir umrga unutmasligi lozim.

“O'z Vatanini sevmagan kishi hech narsani seva olmaydi”-degan edi Jorj Bayron.

Spitamena bilan jang qilaverib biror natijaga erisha olmay tinka-madori qurigan, minglab askarlaridan judo bo'lgan Iskandar unga bitim taklif qiladi. Yunon podshosi Spitamenga o'z elchilari orqali: “Agar shartlarimga rozi bo'lsang, sen Samarqand hukmdori bo'lib shohona yashayverasan”,-deydi. Ammo Spitamen Vatanni yov qo'lga topshirib, bir qismida davru-davron surishni istamaydi. U Vatanni yaxlit, ozod ko'rishni xohlaydi. Shu yo'lda shahid bo'ldi... .

Chingizxon Jaloliddinni yenga olmagach, unga bitim taklif qiladi: “Amudaryoning o'ng qirg'ogi senga, chap qirg'og'ini men olsam bo'ldi”-deydi mo'g'ullar boshlig'i. Ammo vatanparvar Jaloliddin Vatanini bo'laklashni, bir qarichni ham yov qo'lida qoldirishni istamadi. Shu yo'lda shahid bo'ldi.

Amir Temur Vatanining sha'ni, or-nomusi, erkini deb Samarqanddan to Qora dengiz bo'ylarigacha, Oltin O'rdadan shimol tundrasigacha, Amudaryodan to Nil daryosi qirg'oqlarigacha ot surdi. Vatandoshlarining mo'g'ullar toptagan g'ururini ko'tarish uchun osmono'par binolar barpo qildi. Agarda Sohibqiron xohlasa, yiqqan boyliklarini bemalol sovurib shohona ayshu-ishratda yashab o'tishi mumkin edi. Ammo Amir Temur uchun Vatan, uning or-nomusi, shonu-shavkati, erki-osityshligi har narsada ustun edi. Shu sababli ulug' bobomiz yoshi etmishdan oshsa ham egardan tushmadi.

Sohibqiron davrining tarixchilari, bobomiz tez-tez farzandlari va nabiralari oldida takrorlagan bir rivoyatni yozib qoldirganlar. “Qadimda bir arab va bir fors karvon yo'li orqali sayohatga chiqibdi, - deya ohista so'z boshlar ekan Sohibqiron, -

ularning yo'li Sahroi Kabirdan o'tarkan. Hali sahro tugamay, forsning meshdagi suvi tamom bo'libdi.

Arabning meshida esa faqt bir kishigagina etadigan suv qolibdi. Tashnalikdan lablari yorilgan fors arabga qarab:

- Ey, arab, sening xalqingni mard, tanti, o'z xalqi sha'nini himoya qilishda jonini ham ayamaydi deb eshitganman. Agar shu gap rost bo'lsa, buni isbot qil,-debdi.

Shunda arab forsga qarab:

- Mening xalqim haqida shunday gaplarni aytganing uchun rahmat,-deya meshini forsga uzatibdi.

Fors bu suvni ichib sahrodan eson-omon o'tib olibdi, arab esa yo'lda jon beribdi”.

-Bolalarim, millatimiz va Vatanimizning or-nomusi, sha'ni har birimizning hayotimizdan qimmat turadi,-deya o'z so'zni yakunlar ekan har safar Amir Temur¹⁶.

Vatan tushunchasi –keng qamrovli, ko'p ma'noli tushuncha. Inson o'z kindik qoni to'kilgan, tug'ilib o'sgan diyorini Vatan deydi, ammo har bir inson o'z ma'naviy kamoloti darajasiga ko'ra unga qamrov beradi. “O'z uyim – o'lan topshagim” deydi birov, boshqasi tug'ilgan shahar yoki qishlog'ini Vatanim, yurtim deydi. Ammo, qanday talqin etilmasin, muhimi, “Vatan” tushunchasi ma'naviy munosabatni bildiradi, ya'ni u ma'naviy qadriyatdir. “Vatan” tuyg'usi inson ma'naviy kamoloti darajasidan xabar berguvchi ilk muhim nishonadir.

Xalqimizda “falonchi vatanli bo'libdi, o'ziga bir vatan solibdi” deydi. Bu endi so'zining ikkinchi ma'nosi –turar-joy, obod maskan, har bir inson ahli oilasi bilan panohtopguvchi go'sha. Modomiki, inson moddiy vujud ekan, bir obod go'shaga, ahli-xonadon bilan istiqomat qiluvchi muayyan makonga ehtiyoji bor. O'zbek doimo bu ma'nodagi vatanga e'tibor ajratib kelgan, qaerda qo'nim topsa, o'sha yerni obod qilgan, bolam-chaqam deb imorat solgan, bog', chorbog' yaratgan. Xalq so'qqabosh odam haqida: “bedananing uyi yo'q, qayga borsa bitbildiq”, deydi. Shunday ekan, uy-joy solish, birinchi navbatda, inson-ning yolg'iz o'zini o'ylashi emas, balki ahli oilasi, farzandlari haqida qayg'urishi, demak, bu mehr mas'uliyatining dastlabki tetapoyalaridir.

“Vatan” tushunchasining yanada kengroq talqini – har bir inson o'z tug'ilib – o'sgan diyori, o'lkasi – qishlog'i, shahri. Inson o'z kindik qoni to'kilgan yurti – qishlog'i, shahriga nisbatan alohida mehr tuyadi, undan uzoqlashsa, unga intiladi, uni sog'inadi. O'zga shaharda hamqishlog'ini ko'rsa, qarindoshini ko'rgandek bo'ladi, unga talpinadi. Bu tabiiy tuyg'u. Ayniqsa, davlatimiz madhiyasi yangraganda har birimizning vujudimizda yuqoridagi tuyg'ular jo'sh uradi. Chunki sog'lom fikrli inson o'z ota-onasini, aka-ukalarini, opa-singillarini, qarindosh-urug'larini, hamqishloqlarini, birga o'qigan do'stlarini, hattoki, kezman dalalari, Vatanimni sevadi. “Har bir millatning haqiqiy onasi,u millatning tug'ilib o'sgan, ota-bobosidan meros qolgan Vatani-dir. Ona Vatanni boshqalar tasarrufiga qoldirmoq – Vatan

¹⁶ Amriddin Berdimurodov. Vatan haqqiga munojot. Toshkent “Adabiyot” 2020. 15-bet.

avlodlarining kechirilmas og‘ir jinoyatlaridur, balki inson huquqlariga qilgan xiyonatidur” deb yozadi mutafakkir bobomiz Alixonto‘ra Sog‘uniy¹⁷.

“Vatan” tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabati bilan o‘zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib kelgan. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida muayyan qabila yashagan joy o‘sha qabilaning Vatani sanalgan. Qondosh va tildosh qabilalarning uzviy ittifoqidan elat paydo bo‘lgan, elat yashagan hudud el deb atalgan. Masalan, o‘zbek xalq dostonlarida Boysun eli, Qo‘ng‘irot eli, Chambil eli degan iboralar ko‘p uchraydi. Muayyan hudud doirasida markaziy boshqaruvning paydo bo‘lishi bilan “Vatan” tushunchasi “elat”, ya‘ni “xalq” va davlat tushunchalarini qamrab olgan. Xalqning tili, mada-niyati, iqtisodiy turmushi, ruhiy, ma‘naviy va madaniy ravnaq topa borishi natijasida shu xalqqa mansub kishilar orasida mushtaraklik shakllangan. Xalq va millat o‘rtasidagi birinchi va birlamchi farq shundaki, millat vakillarida uyushqoqlik, jipslik, birdamlik, hamjihatlik, bog‘liqlik va aloqadorlik, bugungi turmush va kelgusi maqsadlarda umumiylik xalq vakillaridagidan ko‘ra kuchli va qudratli bo‘lgan.

Urug‘ – jamoa, ilk shahar jamoasi davrida, darhaqiqat, tug‘ilgan qishlog‘i, unib-o‘sgan shahri insonga Vatan bo‘lgan. Shaxs bo‘lib shakllanayotgan ma‘naviyat egasi, o‘z shahri, qishlog‘i, ovulini Vatan deb bilgan. Ammo bu holat milliy ma‘naviyatimizning 5-3 ming yil avvalgi kamolot darajasidir. Bugungi avlod o‘sha 3 ming yil ilgari yutuq hisoblasa bo‘ladigan darajada qolib ketsa nima bo‘ladi? Bugun mening Vatanim Qo‘qon yo Samarqand, Qarshi yo Namangan emas, balki O‘zbekiston atalmish mustaqil yurt, mustaqil mamlakatdir. Har kim o‘zi yashab turgan qishlog‘i, shahrining har bir ko‘chasini, har bir guzarini, arig‘i-anhorini, suvi – havosini pok tutishga intilmog‘i, shunga hissa qo‘shmog‘i ham farz, ham qarz. Ammo “Vatan” tushunchasi tom ma‘noda o‘zi fuqaro bo‘lib hisoblangan mamlakatga taalluqli ekanini bir zum unutmaslik kerak. Mahalliychilik, oila, qarindosh-urug‘ manfaatlarini xalq va millat manfaatlaridan ortiq qo‘yish, ularni zidlashtirish ma‘naviy qashshoqlik nishonalaridir.

Nega “Vatan” tushunchasining bosh ma‘nosi mamlakat, milliy davlat bilan birga keladi? Chunki, bunda “ona zamin” va “millat” tushunchalari birlashadi, uyg‘unlashadi. “Millat” tuyg‘usi bo‘lmagan insonda o‘z oilasi, tug‘ilib o‘sgan shahar-qishlog‘iga intilish bo‘lish mumkin, ammo tom ma‘nodagi Vatan mehri bo‘lmaydi, fidoyilik darajasidagi “Vatan” tuyg‘usi unga yot bo‘ladi. “Millat” tuyg‘usi “Vatan” tuyg‘usi bilan birlashgan joyda haqiqiy Shaxs vujudga keladi, ma‘naviy kamolot, yuksak mas‘uliyat hissi shakllanadi.

Vatan mehri oliy qadriyatdir. Bugungi kunda ona sayyora butun bashariyat uchun yagona Vatan ekanligi, uni pok saqlash, uning boyliklarini asrab-avaylash insoniyat uchun hayot-mamot masalasiga aylanib borayotganligini barchamiz sezib turibmiz. Ammo, baribir, o‘z Vatani sevmagan, millatining qadriga yetmagan inson o‘zganing ham, bashariyatning ham, kurai zamin obodligining ham qadriga

¹⁷ Alixonto‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. www.ziyouz.com. 4-bet.

yetishiga ishonish qiyin. Vatanga sadoqat – haqiqatga sadoqatning, millatga mehr esa ahli basharga mehrning ibtidosidir. Busiz na adolat g'alaba qiladi, na haqiqat yuzaga chiqadi, na insonning o'z shaxsiga ehtiromi shakllanadi. Vatan mehrini yo'qotgan shaxs oyog'i ostidagi zaminni yo'qotadi, bo'shliqda muallaq qoladi. Vatanga muhabbat ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma'naviyatdan bahramandlik, o'z shaxsiy salohiyatiga ishonch, umumbashariyatga hurmat, kelajak oldida mas'ullik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Mustaqillik ma'naviyati Vatanga muhabbatdan, millat manfaatlariga sadoqatdan boshlanadi, har bir shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini Vatan manfaati yo'lida unumli rivojlantirishi bilan namoyon bo'ladi. Unda milliy ma'naviy merosdan mukammal bahramandlikka intilish umumbashariyat qadriyatlardan og'ishmaslik, o'zga millatlar madaniyati, o'zga mintqa va o'lkalarda erishilgan ilg'or tajribalarni ijodiy o'zlashtirish ishtiyoqi bilan uyg'unlikda to'laqonli kamol topadi. Bir so'z bilan aytganda, haqiqiy imon Vatanga mehrdan, Vatan va millat, mamlakat va xalq oldidagi yuksak ma'suliyat hissidan boshlanadi.

Vatanga mehr-muhabbatli bo'lish – g'oyat chidam, g'oyat yuksak ong talab etuvchi ilm va buni egallash ham beshikdan boshlanmog'i va oqibat so'nggi nafasga qadar davom etmog'i joiz. "Vatanparvarlik" Vatanni sevmolikni anglatsa, bu ilmni egalagan kishi Vatanga jonini atagan komil inson martabasiga etgan bo'ladi. Mutafakkir Ahmad Donish—"Kishi o'z vatanini himoya qilsagina, o'z xalqi bilan birga bo'lsagina, u har doim barhayotdir" - deb yozadi¹⁸. Vatandan olganmiz qarzdir, qarzni qaytarmoq esa farzdir. Biz har birimiz Vatanni sevamiz, chunki Vatan–biz nafas olayotgan havodir.

Vatan xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi mujassamlashgan yurtidir. Qanchalik go'zal va obod bo'lmasin, begona yurt Vatan bo'la olmaydi. El-yurt, xalq, Vatan, ona zaminga sadoqat avvalambor sabr va bardosh bilan ilmu hunar egallash, egallangan ilmu hunarni xalqning baxt saodati, el-yurt ravnaqi va Vatan taraqqiyoti yo'lida sarflash, bu yo'lda uchraydigan qiyinchliklarni mardona yengib o'tish, shijoat va qat'iyat bilan olg'a intilish kabilar orqali ro'yobga chiqariladi.

Ota-onaga, Vatanga bo'lgan muhabbat fazilati faqatgina odam bolalariga berilgan. Shunday ekan, Vatan qadriga etmaslikni tangri ne'matlariga noshukrlik, bepisandlik, deb baholash kerak.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy Vatanini, unga sadoqatli, ajdodlar xotirasini unutmagan insonni yuksak ma'naviyatli inson deyish mumkin. Vatanparvarlik – Vatanga va xalqqa sadoqatning oliy ifodasidir. Tarixiy Vatanni eslash, qo'msash insonning ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardandir.

¹⁸ <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/ahmad-donish-1827-1897/>. "Ma'naviyat yulduzlari" (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobidan olindi.

FOUDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent “Ma’naviyat” 1998.

2. Amriddin Berdimurodov. Vatan haqqiga munojot. Toshkent “Adabiyot” 2020.

3. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. www.ziyouz.com.

4. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/ahmad-donish-1827-1897/>. “Ma’naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobidan olindi.

28. Shaxnoza, A. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. *Journal of Modern Educational Achievements*, 3, 33-38.

29. Артикова, Ш. М. (2023). Специфика Функционирования Плеоназмов В Русском И Английском Языках. *Miasto Przyszłości*, 33, 250-254.

30. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF APPEAL IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH INTERNATIONAL LANGUAGES. *Conferencea*, 144-145.

31. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH DIFFERENCE INTERNATION LANGUAGES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 55-59.

32. Artikova, S. M. (2020). About the importance of teaching foreign languages in the republic of Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 5(85), 79-83.

33. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. *Theoretical & Applied Science*, (5), 79-83.

34. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF APPEAL IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. *Conferencea*, 142-143.

35. Artikova, S. (2022). FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 60-63.

36. Артикова, Ш. М., & Муминова, М. А. (2011). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ. *УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА*, 55.